

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Toshkent viloyati  
Rasuljon Suronov da joylashgan 34 - sonli Bolalar musiqa va san'at  
maktabi o'rtasidagi hamkorlik

## MEMORANDUMI

2022-yil 12 - yanvar

Toshkent shahri

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (keyingi o'rinlarda "O'zDSMI" deb ataladi), o'z Ustavi asosida ish yurituvchi, institut nomidan rektor **Yuldashev Ibroxim Jo'rayevich**, bir tomondan hamda Toshkent viloyati Rasuljon Suronov da joylashgan 34 - sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi (keyingi o'rinlarda "BMSM" deb ataladi) o'z Nizomi asosida ish yurituvchi, "BMSM" nomidan direktor Rasmanov Umiddjon Ibroxim o'g'li, ikkinchi tomondan, keyinchalik "Tomonlar" deb nomlanuvchi, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida harakat qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi "Ijtimoiy sheriklik" to'g'risidagi O'RBQ-367-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi 668-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori, shuningdek, 2021-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari B.Axmedov raisligida Madaniyat vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbrlari bilan kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu Memorandumni tuzdilar.

### 1. Memorandumni tuzishdan asosiy maqsad hamda hamkorlikning yo'nalishlari va shakllari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi mamlakatda madaniyat va san'at sohasini jadal rivojlantirishning mutlaqo yangicha samarali tizimini yanada rivojlantirish maqsadida ijodiy ta'lim va madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

1.2. "O'zDSMI" hamda "BMSM" pedagog-xodimlari o'rtasida tajriba almashish, kasbiy mahoratni oshirish va yetarlicha bilimga, ko'nikmaga ega bo'lish maqsadida qo'shimcha mahorat darslarini tashkil etish.

1.3. "O'zDSMI" tomonidan "BMSM" o'quvchilarini turli tanlovlarda ishtirok etishlari uchun tayyorgarlik ko'rish va ularni tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatish.

1.4. "BMSM"da o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish yuzasidan tajriba almashish.

1.5. "BMSM" negizida "O'zDSMI" talabalari uchun o'quv ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etishni yo'lga qo'yish.

1.6. "BMSM"da "O'zDSMI"ning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan mahorat darslarini, madaniyat va san'at sohasining taniqli arboblari, san'at ustalari, teatr san'atining namoyondalari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish.

1.7. "O'zDSMI"ning bitiruvchilariga o'z mutaxassisliklari bo'yicha "BMSM"dagi vakant ish o'rinlarida faoliyat olib borishlari yuzasidan tavsiya va takliflar berish.

1.8. O'quvchilar almashinuvi va o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha respublika va xalqaro grandlarda ishtirok etish.

1.9. Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xorijiy yetakchi olimlar va mutaxassislarni, yosh rassomlar va teatr san'ati nomoyondalari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

1.10. Pedagog-xodimlar uchun MDH mamlakatlari yoki xorijda qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

1.11. "O'zDSMI" badiy-ijodkorlik jamoalari tomonidan o'tkaziladigan bayram tadbirlari va sahna ko'rinishlariga "BMSM" o'quvchilari va jamoasini taklif etish.

1.12. Hamkorlikdagi faoliyat natijalarini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish.

## 2. "Tomonlar"ning o'zaro ta'siri

2.1. "Tomonlar" vakolatli vakillari orqali ushbu Memorandum bandlarini bajarish yuzasidan hamda yuzaga keladigan muammolarni birgalikda ko'rib chiqish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radilar.

2.2. "Tomonlar"lar bir-birlariga hech qanday moliyaviy yoki boshqa tushadigan majburiyatlarni yuklamaydilar, faqat ushbu Memorandum bandlarini bajarish bo'yicha "Tomonlar"ning yozma kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlarga bundan mustasno.

2.3. "Tomonlar"larning har qanday faoliyat turlarini, jumladan o'zaro hamkorlik doirasida ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mustaqil bajarishga cheklolvar qo'yilmaydi.

2.4. "Tomonlar"larning boshqa uyushmalar bilan hamkorlik bo'yicha faoliyatiga cheklolvar qo'yilmaydi.

## 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Zarur hollarda, "Tomonlar"lar ushbu Memorandumda ko'zda tutilgan hamkorlikning ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish uchun qo'shma harakatlar rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

3.2. Ushbu Memorandum qoidalaridan kelib chiqadigan har qanday bildirishnomalar (xabarlar, ma'lumotnomalar va h.k) elektron pochta orqali yoki zarur hollarda, boshqa yo'l (pochta, faks va boshqalar) bilan tomonlarning vakillariga yuboriladi.

3.3. "Tomonlar"lar o'rtasida kelishmovchiliklar va nizolar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

3.4. Ushbu Memorandumga zaruriyat taqozosi bilan "Tomonlar"ning yozma roziligi bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

3.5. O'zaro hamkorlik to'g'risidagi ushbu Memorandum nomuayyan muddatga tuzilgan bo'lib imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

## TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI:

### O'zDSMI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi 127-a uy

Telefon: 71-230-28-06

71-230-28-04

O'zDSMI yuriskonsult  
X.Umarov

2022-yil 12-01

-son

### BMSM

Jahon viloyati Parkent tumani 34-son Bidalar manzili 10 san'at maotobi Parkent tumani Jahon qishloqi. Davlatobod M.F.Y.

Tel: 93-166 66 99

99-912 24 34

*[Handwritten signature]*



2022-yil - -

-son